



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

PROMISING DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF RETAIL BANKING SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY

¹Xikmetov Nodirbek Ikromovich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida chakana bank xizmatlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va tijorat banklari faoliyatida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari tadqiq etilgan. Unda talabalarga masofaviy platformalar orqali ta'lim kreditlarini ajratish orqali mijozlar bazasini kengaytirish, onlayn omonatlar yordamida banklarning resurs salohiyatini oshirish hamda aholining bo'sh mablag'larini moliya tizimiga jalb qilish masalalari yoritilgan. Shuningdek, mobil ilovalar orqali xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirishning afzalliklari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yangi kredit mahsulotlarining iqtisodiy ahamiyati asoslab berilgan.

Eng. - This article examines the priority areas of development of retail banking services in the digital economy and the use of modern digital technologies in the activities of commercial banks. It covers the issues of expanding the customer base by providing educational loans to students through remote platforms, increasing the resource potential of banks through online deposits, and attracting free funds of the population to the financial system. It also substantiates the advantages of international money transfers through mobile applications and the economic significance of new credit products aimed at supporting business entities.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ raqamli iqtisodiyot, chakana bank xizmatlari, masofaviy depozitlar, ta'lim kreditlari, raqamli platforma, xalqaro pul o'tkazmalari, moliyaviy inklyuziya, bank resurs bazasi.

❖ digital economy, retail banking services, remote deposits, education loans, digital platforms, international money transfers, financial inclusion, bank resource base.

Kirish.

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari faoliyatini modernizatsiya qilish hamda chakana bank xizmatlarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank xizmatlarini ko'rsatish usullarini tubdan o'zgartirib, mijozlarga tezkor, qulay va xavfsiz

moliyaviy xizmatlarni taqdim etish imkonini bermoqda. Shu sababli chakana bank xizmatlarini raqamli asosda takomillashtirish va ularning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda mobil banking, internet banking va boshqa masofaviy bank xizmatlarining keng joriy etilishi bank tizimida

mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini sezilarli darajada oshirdi. Bu esa banklar uchun nafaqat operatsion samaradorlikni kuchaytirish, balki mijozlar bazasini kengaytirish va raqobat muhitida ustunlikka erishish imkonini yaratmoqda. Shu nuqtai nazardan, chakana bank xizmatlarini raqamli transformatsiya qilish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi.

Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida chakana bank xizmatlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hamda tijorat banklari faoliyatida zamonaviy raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida talabalarga masofaviy platformalar orqali ta'lim kreditlarini ajratish orqali mijozlar bazasini kengaytirish, onlayn omonat mahsulotlari orqali banklarning resurs salohiyatini oshirish hamda aholining bo'sh pul mablag'larini moliya tizimiga jalb etish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, mobil ilovalar orqali xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirishning qulayligi, tezkorligi va xavfsizligi tahlil qilingan.

Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda mikroloiyahalarni moliyalashtirish maqsadida yangi kredit mahsulotlarini joriy etishning iqtisodiy ahamiyati asoslab berilgan. Umuman olganda, maqolada chakana bank xizmatlarini raqamlashtirish bank tizimi samaradorligini oshirish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida baholangan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Ko'plab tadqiqotlarda chakana bank xizmatlarini rivojlantirishda ularning ommaviy xarakteri muhim mezon sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv doirasida qondirilayotgan ehtiyojlarning xususiyatlariga ham alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, I. Osnovinning fikriga ko'ra, chakana bank mahsuloti bank ma'lumotlarini qayta ishlash jarayonlari va bank operatsiyalarini amalga

oshirishning yagona texnologiyasiga asoslanadi [1].

Xorijiy olim A. Omarini chakana bank xizmatlarini texnologik taraqqiyot va iste'mol talabi ortishi bilan bog'liq holda rivojlanadigan xizmat turi sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuv xizmatlarning dinamik rivojlanish xususiyatini ochib bersa-da, ularning amaliy moliyaviy operatsiyalar majmuasi sifatidagi mazmunini to'liq yoritmaydi [2]. Shu bois, chakana bank xizmatlarini nafaqat texnologik rivojlanish natijasi, balki aholi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan innovatsion va raqamli xizmatlar tizimi sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir.

S. Scott, J. Reenen va M. Zachariadis chakana bank xizmatlarini raqamli transformatsiya va fintex innovatsiyalari kontekstida tahlil qilib, ularning an'anaviy filial modelidan ko'p kanalli va platformaviy tizimga o'tayotganini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va raqamli platformalar bank xizmatlari samaradorligini oshirib, mijozlar xulq-atvorining o'zgarishi, xizmatlarning individuallashuvi va moliyaviy inklyuziyaning kengayishiga olib keladi [3].

A. Fiador chakana bank xizmatlarini moliyaviy xizmatlar tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, ularning asosiy vazifasi jismoniy shaxslarga depozit, kredit, ipoteka va to'lov xizmatlarini taqdim etishdan iborat ekanligini qayd etadi. Shuningdek, u raqamli texnologiyalar rivoji ushbu xizmatlar transformatsiyasini tezlashtirayotganini, mobil va internet-banking orqali xizmatlar qulayligi ortib borayotganini ta'kidlaydi [4].

R. Hepsiba chakana bank xizmatlarini mijozlarga yo'naltirilgan asosiy moliyaviy faoliyat turi sifatida ko'rib chiqib, ularning samaradorligi bank turiga bog'liq holda farqlanishini qayd etadi [5]. Xususan, xususiy banklar innovatsion xizmatlarni tezroq joriy etsa, davlat banklari qamrov va barqarorlikka ko'proq e'tibor qaratadi.

Y. Vinokurova chakana bank xizmatlarini o'zaro bog'liq operatsiyalar majmui sifatida

talqin qilib, ularning asosiy maqsadi mijoz ehtiyojlarini qondirish orqali pul mablag'larini harakatini ta'minlashdan iborat ekanligini ta'kidlaydi [6]. Biroq ushbu ta'rifda xizmatlarning bozor sharoitidagi raqobat muhiti, mijozga yo'naltirilganlik va raqamli omillar yetarli darajada aks etmagan.

N.Keshenkovaning ta'rifiga ko'ra, chakana bank xizmatlari standartlashtirilgan bank operatsiyalari asosida mijozlarni ommaviy tarzda xizmat va mahsulotlar bilan ta'minlashning yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan jarayonidir [7]. Ushbu yondashuv xizmatlarning tashkiliy-huquqiy jihatlarini yoritib bersa-da, zamonaviy raqamli transformatsiya va individuallashtirilgan xizmat ko'rsatish masalalarini to'liq qamrab olmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida olingan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish maqsadida induksiya va deduksiya, tizimli hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuv raqamli iqtisodiyot sharoitida chakana bank xizmatlarini rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda o'rganish, ularning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash hamda xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi. Shu orqali tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy etish va chakana bank xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tijorat banklari resurs bazasini kengaytirish va aholining bo'sh pul mablag'larini bank tizimiga jalb etish zamonaviy bank tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida chakana bank xizmatlarini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari doirasida mazkur tadqiqotda "Biznesni rivojlantirish banki" ATB faoliyati misolida to'rtta asosiy yo'nalish - onlayn omonatlar va masofaviy depozitlar orqali

resurs bazasini kengaytirish, ta'lim kreditlarini to'liq raqamli platforma (ta'lim.br.b.uz) orqali avtomatlashtirilgan tarzda ajratish, xalqaro pul o'tkazmalarini Astrasend tizimi va BRB mobile ilovasi integratsiyasi asosida raqamlashtirish hamda "Mahalla loyihasi" doirasida ijtimoiy yo'naltirilgan kreditlar orqali moliyaviy inklyuziyani kengaytirish jarayonlari ilmiy tahlil qilindi. Ushbu yo'nalishlar bank xizmatlarining raqamli transformatsiyasini chuqurlashtirib, operatsion samaradorlikni oshirish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va aholining bank tizimiga jalb etilishini kuchaytirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Raqamli iqtisodiyot va moliyaviy texnologiyalar rivojlanishi sharoitida bank resurs bazasi depozitlar, banklararo kreditlar, qimmatli qog'ozlar emissiyasi hamda bank kapitali orqali shakllanib, banklarning likvidligi, moliyaviy barqarorligi va kreditlash salohiyatini belgilovchi muhim iqtisodiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, onlayn omonat mahsulotlari va raqamli bank xizmatlarining joriy etilishi aholi jamg'armalarini bank tizimiga keng jalb qilish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish hamda bank resurs bazasini diversifikatsiya qilish imkonini bermoqda. Shu bois, tijorat banklari tomonidan onlayn omonat mahsulotlarini samarali joriy etish institutsional, texnologik va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishni talab etuvchi strategik yo'nalish sifatida ahamiyat kasb etadi. Onlayn omonat mahsulotlarini samarali joriy etish tijorat banklari faoliyatida strategik yondashuvni talab etadi. Mazkur jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish bir qator institutsional, texnologik va iqtisodiy yo'nalishlar bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yurituvchi aksariyat tijorat banklari tomonidan masofaviy depozit xizmatlari faol tarzda taqdim etilmoqda. Ushbu xizmatlar bank va mijozlar o'rtasidagi

an’anaviy filial operatsiyalariga bo’lgan bog’liqlikni kamaytirib, mablag’larni masofadan turib joylashtirish va boshqarish imkonini yaratadi. Xususan, “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tomonidan jismoniy shaxslar uchun taklif qilinayotgan asosiy onlayn omonat mahsulotlari bu jarayonning

muhim elementini tashkil etadi. Har bir omonat turi o’ziga xos xususiyatlar, foiz stavkalari, muddatlari va minimal depozit talablari bilan ajralib turadi, bu esa bankning resurs bazasini samarali shakllantirish va kengaytirishda muhim rol o’ynaydi (1-jadval).

1-jadval

“Biznesni rivojlantirish banki” ATBning jismoniy shaxslar uchun asosiy onlayn omonat mahsulotlari

Omonat nomi	Yillik foiz stavkasi	Muddat	Minimal depozit miqdori
BRB + onlayn omonati	21	13 oy	500 000 so‘m
“Kunlik daromad” onlayn omonati	21	13 oy	100 000 so‘m
“Konstruktor” onlayn omonati	21	1-730 kun	100 000 so‘m

Umuman olganda, ushbu onlayn omonat mahsulotlari bankning raqamli xizmatlar orqali mablag’larni jalb qilish strategiyasini aks ettiradi. Ular mijozlar uchun qulaylik, moslashuvchanlik va yuqori daromad imkoniyatini taqdim etadi, shu bilan birga bank

resurs bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Quyidagi 3-jadvalda “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tomonidan 2021-2025-yillarda masofaviy depozitlarni jalb etish dinamikasi keltirilgan.

2-jadval

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB tomonidan 2021-2025-yillarda masofaviy depozitlarni jalb etish dinamikasi (mlrd. so‘m)¹

Yillar	Jami depozitlar hajmi	BRB mobil ilovasi orqali jalb etilgan masofaviy depozitlar hajmi			Ulushi
		BRB omonat	Kunlik daromad	Konstruktor omonati	
2021	1 021,0	-	-	-	0
2022	1 572,0	-	-	-	0
2023	1 737,0	-	-	-	0
2024	2 225,0	28,83	-	-	1
2025	4 197,0	81,68	120,48	10,17	5

2021–2025-yillarda Biznesni rivojlantirish bankida jami depozitlar hajmining 1 021,0 mlrd. so‘mdan 4 197,0 mlrd. so‘mga yetishi natijasida bank resurs bazasi 4,1 baravarga oshdi. Ayniqsa, 2024-yildan boshlab mobil ilova orqali masofaviy depozit xizmatlarining joriy etilishi raqamli transformatsiya jarayonining amaliy natijasini namoyon etdi. Xususan, masofaviy depozitlar hajmi 28,83 mlrd. so‘mdan 2025-yilda 212,33 mlrd. so‘mga yetib, bankning onlayn xizmatlari orqali resurs bazasi va moliyaviy inklyuziya ko‘lamining kengayganini ko‘rsatdi.

Mazkur raqamli transformatsiya tajribasi ta’lim kreditlarini ham internet banking, mobil ilovalar, elektron identifikatsiya tizimlari hamda avtomatlashtirilgan ma’lumotlar bazalari asosida masofaviy shaklda taqdim etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Natijada talaba yoki uning ota-onasi bank filialiga tashrif buyurmasdan turib ariza topshirish, elektron hujjatlarni yuborish va kredit operatsiyalarini boshqarish imkoniga ega bo‘lib, kreditlash jarayonining tezkorligi, shaffofligi va qulayligi yanada oshmoqda.

¹“Biznesni rivojlantirish banki” ATB ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

3-jadval

Ta’lim kreditini raqamli texnologiyalar orqali berish mexanizmining asosiy bosqichlari

T/r	Bosqich nomi	Xususiyati
1	Raqamli platforma orqali ro'yxatdan o'tish	shaxsiy identifikatsiya amalga oshiriladi; elektron identifikatsiya (ID karta yoki biometrik tekshiruv) o'tkaziladi; shaxsiy kabinet yaratiladi.
2	Kredit arizasini onlayn topshirish	Talaba tizim orqali kredit olish uchun ariza topshiradi.
3	Ma'lumotlarni avtomatik tekshirish	Talabani haqiqiyliigi tekshiriladi; Kontrakt summasi tasdiqlanadi; Mijozning kredit tarixi aniqlanadi.
4	Kredit layoqatliligini baholash	Mijozning risk darajasi aniqlanadi.
5	Kredit bo'yicha qaror qabul qilish	Kredit tasdiqlansa, mijozga mobil ilova orqali xabar yuboriladi.
6	Elektron shartnoma tuzish	Shartnoma elektron raqamli imzo (ERI) yoki biometrik tasdiqlash orqali tasdiqlanadi.
7	Kredit mablag'larini o'tkazish	Kredit mablag'i to'g'ridan-to'g'ri oliy ta'lim muassasasining hisob raqamiga o'tkaziladi.
8	Kreditni monitoring qilish	Raqamli platforma orqali kredit qaytarilishi monitoring qilinadi.

Masofaviy kreditlash tizimida sun'iy intellekt, “big data” va avtomatlashtirilgan skoring texnologiyalaridan foydalanish kredit arizalarini tezkor va obyektiv baholash imkonini beradi. Sun'iy intellekt algoritmlari mijozlarning to'lov qobiliyati va kredit risklarini tahlil qilsa, “big data” texnologiyalari ularning moliyaviy xatti-harakatlari hamda kredit tarixini chuqur o'rganishga xizmat

qiladi. Avtomatlashtirilgan skoring tizimlari esa kreditga layoqatlilikni standart mezonlar asosida baholab, inson omilini kamaytiradi va qaror qabul qilish samaradorligini oshiradi. Shuningdek, elektron ma'lumotlar almashinuvi orqali banklar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik kuchayib, ta'lim kreditlarini ajratish jarayonining tezkorligi va ishonchliligi ta'minlanadi.

4-jadval

“Biznesni rivojlantirish bank” ATBning muammoli kreditlari hajmida ta'lim kreditlarining ulushi (mlrd. so'm va foizda)²

Yillar	Muammoli kreditlar hajmi	Muammoli ta'lim kreditlari hajmi	Jamidagi ulushi
2021	749,4	-	0,00
2022	789,8	0,03	0,00
2023	1935,4	0,52	0,03
2024	1915,0	2,23	0,12
2025	1110,0	1,73	0,16

2021-2025-yillarda tijorat bankida ta'lim kreditlari bo'yicha muammoli qarzdorlik hajmi mutlaq miqdorda nisbatan past darajada saqlanib qolgan bo'lsa-da, uning umumiy muammoli kreditlar tarkibidagi ulushi bosqichma-bosqich oshib borgan. Xususan, 2021-yilda ushbu segmentda muammoli qarzdorlik kuzatilmagan bo'lsa, 2025-yilga kelib u 1,73 mlrd so'mni tashkil etib, umumiy portfeldagi ulushi 0,16 foizga yetgan. Mazkur

tendensiya ta'lim kreditlash hajmining kengayishi bilan bir qatorda kredit risklarini boshqarish tizimlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, “Biznesni rivojlantirish bank” ATB tomonidan 2024-yildan ta'lim.brb.uz elektron platformasining joriy etilishi ta'lim kreditlarini ajratish jarayonini raqamlashtirish va soddalashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

²“Biznesni rivojlantirish bank” ATB ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

5-jadval

“Biznesni rivojlantirish bank” ATBning ta’lim.brb.uz tizimi orqali ajratilgan kreditlar hajmi (mlrd. so‘m va foizda)³

Yillar	Jami ta’lim kreditlari hajmi	Ta’lim.brb.uz tizimi orqali ajratilgan kreditlar hajmi	Ulushi
2024	56,5	30,8	54
2025	78,0	78,0	100

2024-yilda ajratilgan 56,5 mlrd so‘mlik ta’lim kreditlarining 30,8 mlrd so‘mi yoki 54 foizi ta’lim.brb.uz tizimi orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, 2025-yilda ushbu ko‘rsatkich 78,0 mlrd so‘mga yetib, bank tomonidan ajratilgan ta’lim kreditlarining to‘liq hajmini qamrab oldi. Bu holat bankning ta’lim kreditlash jarayonini to‘liq raqamlashtirganini hamda masofaviy xizmatlar orqali mijozlar uchun tezkor, qulay va shaffof moliyaviy xizmatlar tizimi shakllanganini ko‘rsatadi.

Xalqaro hisob-kitoblar tijorat banklarining moliyaviy vositachilik funksiyasining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, global kapital oqimining samarali taqsimlanishini ta’minlaydi. An’anaviy xalqaro pul o‘tkazmalari bank filiallari orqali amalga oshirilib, AML/KYC nazorati asosida tranzaksiyalar xavfsizligi va shaffofligi

ta’minlanadi, biroq ushbu jarayon vaqt va xarajat talab qilishi bilan tavsiflanadi. Shu sababli, “Biznesni rivojlantirish banki” ATB xalqaro provayderlar bilan hamkorlik asosida raqamli platformalar va mobil ilovalar orqali tezkor, xavfsiz hamda avtomatlashtirilgan xalqaro pul o‘tkazmalari xizmatlarini rivojlantirmoqda.

Xususan, Astrasend xalqaro pul o‘tkazmalari tizimining “BRB mobile” mobil ilovasi bilan integratsiyalashuvi xalqaro pul o‘tkazmalarini qabul qilish jarayonini raqamlashtirish va soddalashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur tizim foydalanuvchilarga mablag‘larni bank filialiga tashrif buyurmasdan real vaqt rejimida tezkor, xavfsiz va qulay tarzda qabul qilish imkonini yaratdi.

6-jadval

Astrasend tizimidan kelib tushgan mablag‘larning “BRB mobile” orqali o‘zlashtirilish ko‘rsatkichlari (ming AQSh dollari)⁴

Ko‘rsatkichlar	Yillar		
	2024	2025	2026-yil 1-chorak
Kelib tushgan mablag‘lar	46,7	77 716,4	16317,2
Masofadan foydalanilgan mablag‘lar	-	2,0	20,6

2025-yilda xizmat ishga tushirilgach, kelib tushgan mablag‘lar hajmi 77 716,4 ming AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, masofaviy o‘zlashtirilgan mablag‘lar hajmi dastlab 2,0 ming dollarni tashkil etdi. 2026-yil 1-choragida ushbu ko‘rsatkichning 20,6 ming dollarga yetishi foydalanuvchilarning raqamli moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan ishonchi va foydalanish darajasi ortib borayotganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash hamda hududiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan institutsional va raqamli mexanizmlar izchil takomillashtirilmoqda. Xususan, “Onlayn mahalla”, “Raqamli mahalla” va subsidiyalash platformalarining tijorat banklari axborot tizimlari bilan integratsiyalashuvi kredit ajratish jarayonining shaffofligi, tezkorligi va operatsion

³“Biznesni rivojlantirish bank” ATB ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

⁴“Biznesni rivojlantirish bank” ATB ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mazkur yondashuv orqali mikrokredit va ipoteka kreditlarini masofaviy shaklda ajratish, mablag'lar oqimini real vaqt rejimida monitoring qilish hamda moliyaviy inklyuziyani kengaytirish imkoniyati yaratilmoqda.

Umuman olganda, “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tomonidan “Mahalla

loyihasi” doirasida joriy etilgan yangi kredit mahsulotlari kichik va mikro biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ish o'rinlarini yaratish hamda hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi strategik mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

7-jadval

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB tomonidan “Mahalla loyihasi” doirasida joriy etilgan kredit mahsulotlar⁵

Mahsulot nomi	Foiz stavkasi	Miqdori	Muddati
Kichik biznes uchun mikrokredit	19 foizdan boshlab	300 million so'mgacha	7 yilgacha
“Mahallada biznes” krediti	24 foizdan boshlab	5 ming AQSH dollari ekvivalentigacha	36 oygacha
“Mahallada tadbirkorlik” mikrokredit	24 foizdan boshlab	300 million so'mgacha	36 oygacha
“Mahallada tadbirkorlik” mikrokredit	20-21 foizdan boshlab	10,3 milliard so'mgacha	84 oygacha

Mazkur kreditlar imtiyozli foiz stavkalari, moslashuvchan muddatlar va soddalashtirilgan kreditlash tartibi orqali tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Xususan, mikrokreditlarning uzoq muddatli va nisbatan qulay shartlarda ajratilishi mikroloyihalarni moliyalashtirish, hududiy

iqtisodiyot diversifikatsiyasi hamda kambag'allikni qisqartirish jarayonlarini qo'llab-quvvatlaydi. Shu jihatdan, mazkur kredit mahsulotlari nafaqat bankning moliyaviy vositachilik samaradorligini oshiradi, balki mamlakatda tadbirkorlik muhitini rivojlantirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

8-jadval

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB tomonidan aholiga ajratilgan kreditlar (mlrd. so'm)⁶

№	Kredit turlari	2023-yil		2024-yil		2025-yil	
		Summa	Ulushi	Summa	Ulushi	Summa	Ulushi
1	Mikroqarz	470,58	26	424,85	17	570,21	13
2	Iste'mol krediti	19,67	1	5,18	0	39,88	1
3	Avtokredit	27,26	2	658,22	27	239,64	6
4	Ta'lim krediti	79,45	4	56,52	2	78,01	2
5	Ipoteka krediti	1189,73	66	938,40	38	1892,24	44
6	Overdraft krediti	-	0	24,70	1	36,86	1
7	Onlayn overdraft	-	0	-	0	40,64	1
8	Onlayn mikroqarz	5,36	0	40,52	2	93,50	2
9	Onlayn avto kredit	-	0	0,57	0	0,13	0
10	Dastur doirasidagi kreditlar (Mahalla loyihasi)	-	0	317,86	13	1265,69	30
	Jami	1792,05		2466,82	100	4256,81	100

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB tomonidan 2023–2025-yillarda aholiga ajratilgan kreditlar tarkibida “Mahalla loyihasi”

dasturi muhim o'rin egallab, 2024-yilda 317,86 mlrd so'm (13%) miqdorida, 2025-yilda esa 1265,69 mlrd so'm (30%) hajmda kreditlar

⁵“Biznesni rivojlantirish banki” ATB ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

⁶“Biznesni rivojlantirish banki” ATB ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

ajratilgan. Ushbu keskin o'sish mazkur dastur kredit siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanganini hamda moliyaviy inklyuziya darajasi oshib, keng aholining bank xizmatlariga jalb etilganini ko'rsatadi. Natijada kredit portfeli diversifikatsiyalashib, hududiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish orqali iqtisodiyotga ijobiy multiplikativ ta'sir yuzaga kelmoqda.

Xulosa va takliflar.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida chakana bank xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Raqamli iqtisodiyot sharoitida chakana bank xizmatlari bank tizimining eng muhim va tez rivojlanayotgan segmentiga aylanib bormoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy texnologiyalar (fintex), sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili va mobil platformalarning keng joriy etilishi natijasida an'anaviy bank xizmatlari tubdan transformatsiyalanmoqda. Ushbu jarayon banklar faoliyatida mijozga yo'naltirilganlik darajasini oshirish, xizmat ko'rsatish tezligini yaxshilash hamda operatsion xarajatlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Natijada chakana bank xizmatlari nafaqat daromad manbai, balki banklarning raqobat ustunligini ta'minlovchi strategik yo'nalishga aylanmoqda.

2. Chakana bank xizmatlarining rivojlanishi bevosita umumiy iqtisodiy va individual omillar ta'sirida shakllanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, makroiqtisodiy barqarorlik, aholining daromadlari darajasi, moliyaviy savodxonlik hamda raqamli infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi chakana xizmatlar kengayishining asosiy determinantlari hisoblanadi. Shu bilan birga, individual omillar, ya'ni mijoz xulq-atvori, texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasi va xizmatlarga bo'lgan ishonch darajasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillarni kompleks hisobga olish bank

xizmatlarini samarali rivojlantirish uchun zaruriy shart hisoblanadi.

3. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda chakana bank xizmatlarining asosiy drayveri raqamli platformalar va ekotizimlar hisoblanadi. Banklar an'anaviy modeldan voz kechib, ko'p kanalli (multichannel) va platformaviy xizmat ko'rsatish tizimiga o'tmoqda. Bu esa mijozlarga yagona interfeys orqali keng ko'lamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkonini yaratadi. Mazkur tajriba O'zbekiston bank tizimi uchun ham muhim bo'lib, raqamli transformatsiyani jadallashtirish zarurligini asoslaydi.

4. O'zbekiston bank tizimida chakana bank xizmatlari so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Xususan, depozitlar, kreditlar va masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar sonining keskin ortishi bank xizmatlarining ommalashganini ko'rsatadi. Ayniqsa, jismoniy shaxslar depozitlarining ulushi oshib borayotgani aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchining ortib borayotganini tasdiqlaydi. Bu jarayon moliyaviy inkluziyaning kengayib borayotganidan dalolat beradi.

5. Tijorat banklari kredit portfelida chakana kreditlarning ulushi ortib borayotgani aholi segmentining bank tizimidagi ahamiyati kuchayganini ko'rsatadi. Ipoteka, mikroqarz, avtokredit va iste'mol kreditlarining kengayishi banklar daromadlarini diversifikatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bu jarayon risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishni talab etadi. Xususan, kredit risklarini baholashda sun'iy intellekt va skoring tizimlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Masofaviy bank xizmatlari (mobil va internet banking) chakana bank xizmatlarining eng istiqbolli yo'nalishi sifatida shakllanmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni bir necha barobar oshgan bo'lib, bu raqamli bank xizmatlarining aholi orasida keng

ommalashganini tasdiqlaydi. Ushbu xizmatlar bank filiallariga bo'lgan ehtiyojni kamaytirib, xizmat ko'rsatish samaradorligini oshiradi hamda mijozlar uchun vaqt va xarajatlarni tejaydi.

7. Onlayn omonat mahsulotlarining joriy etilishi tijorat banklari resurs bazasini kengaytirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotda aniqlanishicha, raqamli omonat mahsulotlari orqali jalb qilingan mablag'lar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Bu esa banklarning raqamli strategiyasi samarali amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, foiz siyosatini optimallashtirish va innovatsion omonat mahsulotlarini yaratish depozitlar hajmini yanada oshirish imkonini beradi.

8. Xalqaro pul o'tkazmalari tizimlarining raqamlashtirilishi bank xizmatlari samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mobil ilovalar orqali xalqaro o'tkazmalardan foydalanish imkoniyatining yaratilishi mijozlar uchun qulaylikni sezilarli darajada oshirgan. Bu esa banklarning xizmatlar portfelini kengaytirish va mijozlar bazasini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo'nalishda

blokcheyn texnologiyalarini joriy etish istiqbolli hisoblanadi.

9. Tadbirkorlikni rivojlantirish va mikroloiyhalarni moliyalashtirishda chakana bank xizmatlarining roli ortib bormoqda. Xususan, "Mahalla loyihasi" kabi dasturlar orqali ajratilayotgan kreditlar hududiy iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi va aholining daromadlarini oshiradi. Bu esa banklarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi rolini kuchaytiradi hamda moliyaviy inkluziyani kengaytirishga xizmat qiladi.

10. Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida chakana bank xizmatlarini rivojlantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Bunda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, kiberxavfsizlikni ta'minlash, moliyaviy savodxonlikni oshirish hamda innovatsion bank mahsulotlarini yaratish ustuvor vazifalar hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu yo'nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va mijozlar ehtiyojlarini to'liq qondirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Никоноров В. В. Развитие розничных услуг коммерческих банков как основа повышения их конкурентоспособности: дис. ... канд. экон. наук. Волгоград, 2008.
2. Omarini A. Introduction: From Banking to Retail Banking. In: Retail Banking. Palgrave Macmillan Studies in Banking and Financial Institutions. Palgrave Macmillan, London. 2015. <https://doi.org/10.1057/9781137392558>
3. Susan V. Scott, John Van Reenen, Markos Zachariadis. The long-term effect of digital innovation on bank performance: An empirical study of SWIFT adoption in financial services. Research Policy. Volume 46, Issue 5, June 2017, Pages 984-1004.
4. Fiador A. Retail banking, A cornerstone of the financial services industry. Academy of Accounting and Financial Studies Journal, 2024. 28(S3), 1-3.
5. R. Hepsiba. Retail Banking Services in Public and Private Sector Banks. Volume 5, Issue 4, July-August 2023. P. 1-9.
6. Винокурова Е.А.. Методическое обеспечение анализа кризисных состояний розничного бизнеса коммерческого банка: автореферат дис. канд. экон. наук: 08.00.12/ Йошкар-Ола - 2011г. - 20 с.
7. Кешенкова Н.В. Развитие розничных банковских услуг в условиях формирования инновационной экономики: автореферат дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Моск. гос. ун-т экономики, статистики и информатики - Москва, 2013 г. - 27 с.
8. <https://www.brbb.uz> - "Biznesni rivojlantirish bank" ATBning rasmiy veb-sayti.